

MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC
SOLUTIONSTANQIDCHILIK MASALALARI – OZOD SHARAFIDDINOV
IJODINING BOSH MAVZUSI SIFATIDA**Raimbayeva Sojida***Urganch davlat universiteti Magistratura bòlimi
Adabiyotshunoslik: o'zbek adabiyoti magitranti*

Annotatsiya: *Maqolada Ozod Sharafiddinovning tanqidchilik mahorati masalalari yoritilgan maqolalari, "Ijodni anglash baxti" asari yuzasidan fikrlar keltiriladi.*

Kalit so'zlar: *Tanqidchilik, maqola, tanqidchi, taqriz, munaqqid*

O'zbek adabiyoti tanqidchiligi o'zbek adabiyotining muhim tarkibiy qismi bo'lib, badiiy ijodning rivojlanish jarayonini baholash, adabiy asarlarning badiiy-estetik va ijtimoiy ahamiyatini aniqlashda katta rol o'yaydi. Bu soha o'zbek adabiy jarayonini nazariy jihatdan mustahkamlash, yangi yo'naliishlarni belgilash va adabiy merosni tahlil qilishga xizmat qiladi. O'zbek tanqidchiligi yorqin namoyondasi sifatida Ozod Sharafiddinovni aytishimiz mumkin. Ijodining bosh mavzusi tanqidchilik masalalarini yoritish bo'lgani bois Ozod Sharafiddinov "Ijodni anglash baxti" asarida shunday fikrlarni aytadi: "Taqnidchi bo'lishni istagan odam adabiyotni butun vujudi bilan sevishi, unga sidqidildan, fidoyilik ila xizmat qilishi lozim. Chinakam so'z san'ati tanqidchi uchun olamdag'i eng muqaddas, eng mo'tabar, eng qutlug' narsa bo'lmosg'i darkor. So'z san'atiga muhabbat tanqidchining asarlariga qanot bag'ishlaydi, ularga shunday bir jon ato qiladiki, shu tufayli ularni o'qigan kitobxon qalbida ham nurli tuyg'ular, musaffo hislar paydo bo'lad'i"¹⁰. Yana ta'kidlash lozimki, Ozod Sharafiddinov maqolalaridan birida tanqidchilik kasbi haqida fikr bildirib, tanqidchida uchta unsur mujassam bo'lishi kerakligini aytadi: avvalo unda "estetik tuyg'u benihoya o'tkir bo'lishi lozim, u san'at go'zalligini nozik his qila bilishi, badiiy adabiyotdan chinakam zavqlana olishi shart"; ikkinchisi - "fikrlash qobiliyati"; uchinchisi - "adabiyotning butun vujudi bilan bilan sevish, unga sidqidildan fidoyilik bilan xizmat qilish"¹¹. Ozod Sharafiddinovda bu unsurlarning bari jam. To'g'risi, bu fazilatlarni o'zida mujassam etgan talaygina tanqidchilarimiz oz emas. Biroq Ozod Sharafiddinovda shularning birini yaxlitlab, kuchaytirib namoyon etuvchi yana bir muhim jihat bor: u-birinchi navbatda shaxs. O'zining hayotiy tajribasi, ko'rgan-bilganlari, o'qiganlarining qaymog'i sifatida shakllangan qarashlarni himoya qilishga, haq gapni aytishga, kerak bo'lsa o'zini ham tanqid qilishga o'zida jur'at topa biladigan shaxs. Xuddi shu narsa Ozod Sharafiddinovning el ichida, mutaxassislar orasida topgan yuksak obro'e tiborning asosidir. Ozod Sharafiddinovning adabiy tanqidiy asarlari janr jihatidan rang-barang. Ularning sirasida taqriz alohida o'rinn tutadi. Ma'lumki, taqriz adabiy tanqidning

¹⁰ O.Sharafiddinov.Ijodni anglash baxti.Toshkent. "Sharq".B.227

¹¹ O.Sharafiddinov. Talant – xalq mulki. Toshkent. B.104



MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

munaqqid ijodiy faolligini ko'rsatadigan operativ janri, u, odatda, yangi asar paydo bo'lgandan so'ng qisqa fursat ichida yoziladi. Ya'ni taqriz yozish uchun munaqqid adabiy jarayonni muntazam kuzatib borishi, uning ichida yashashi zarur. Zero, chinakam taqriz yangi asarni bugungi adabiy jarayon kontekstida, badiiy tafakkurning bugungi darajasi va bugungi o'quvchining badiiy didini hisobga olgan holda yoritishi va baholashi zarur. Ozod Sharafiddinov yarim asrlik faoliyati davomida ko'plab taqrizlar yozdi. Uning taqrizlarida yangi asar haqida ma'lumot berish bilangina cheklanib qolinmaydi, balki taqriz qilinayotgan asar yuqoridaqicha talablar asosida tahlil qilinadi, baholanadi. Jumladan, munaqqid ijodining turli davrlariga mansub "Kelajakka chorlovchi qissa", "Hayotiylik jozibasi va sxematizm inersiyasi", "Botirlarning umri boqiy", "Ona", "Munaqqid so'zining salmog'i", "Mag'zi puch so'zlardan bir tosh nari qoch" kabi taqrizlari ushbu janrning o'zbek tanqidchiligidagi sara namunalaridan sanaladi. Ozod Sharafiddinov o'z taqrizlarida yangi asar bahona ko'pincha adabiyotimizning muhim muammolarini o'rtaga qo'yadi, ularga munosabat bildiradi. Masalan, O'.Umarbekovning "Damir Usmonovning ikki bahori" qissasiga yozilgan taqrizda 70 - yillarda adabiyotimizda qaytadan urchiy boshlagan "dono partiya rahbarlari" obrazlari, hayotni soxta sxematik aks ettirishning adabiyotga zarari haqida asosli fikrlar bildiriladi. O.Sharafiddinovning "Mag'zi puch so'zlardan bir tosh nari qoch" taqrizi B.Boyqobilovning "O'zbeknoma" asari haqida. Biroq shu gapning o'zi bilan kifoyalansak, taqrizning ahamiyatini tushirgan, undagi katta umumlashmani toraytirgan bo'lamiz. Buni munaqqidning o'zi ham ta'kidlaydi: "biz bir shoirning bir asari haqida bahslashayotgandek ko'rinsak-da, aslida bahs kattaroq, jiddiyroq masala ustida ketyapti. Gap chinakam san'at darajasidagi adabiyotni yaratish, binobarin, mustaqil yurtimizning mustaqil adabiyoti to'g'risida boryapti". Shu ezgu niyatni ko'zlagan holda O.Sharafiddinov taqrizda istiqlol davri adabiyotida nish ura boshlagan "maddohizm" illatini keskin tanqid qiladi, bu hodisaning adabiyotga yot ekanligini asoslab beradi. Yangi zamon o'zbek adabiyoti, adabiyotshunosligi tarixida O'zbekiston Qahramoni Ozod Sharafiddinovning tutgan o'rni alohida. O'nlab kitoblar, yuzlab ilmiy, ilmiy-publisistik maqolalar, qirqdan ortiq tarjima asarlar bu ulug' olim merosining nechog'liq salmoqli ekanidan dalolat beradi. Eng muhimi, bu asarlar, nafaqat adabiyotimiz va adabiyotshunosligimiz, balki milliy ma'naviyatimiz rivojiga ham munosib hissa bo'lib qo'shildi. Ozod Sharafiddinov nainki mashhur olim, mohir pedagog va salohiyatlari tarjimon, shuning barobarida mustahkam e'tiqodli va qat'iyatli shaxs sifatida ham juda ko'p fazilatlar sohibi edi. O'tgan asrning so'nggi yillarida qand kasalligi bois ikki oyog'idan ajralgan, buning ustiga ko'rish quvvati zaiflashib qolgan ustoz olim o'zining metin iroda sohibi ekanini namoyon etdi. Davlatimizning oliy mukofoti - «O'zbekiston Qahramoni» unvoniga sazovor bo'lgani ustozning mamlakatimiz ma'naviy yuksalishi yo'lidagi buyuk xizmatlari munosib darajada e'tirof etilgani isbotidir. Professor Ozod Sharafiddinovning ilmiy faoliyati keng qirralidir. Olim milliy uyg'onish davri va zamonaviy adabiyotimiz bo'yicha e'tiborga molik taddiqotlar yaratdi. Adabiy-tanqidiy

MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

maqolalar, esselar, adabiy portretlar, ocherklar yozdilar. "Ijodni anglash baxti" asarida tanqidchilik masalalari xususidagi olimning fikrlarini o'qir ekanmiz, uning har bir asarga yondoshuvida o'ziga xos xolislik va haqqoniylik tamoyillarining ustuvorligini kuzatamiz. Munaqqid kitobning "Adabiy suhbatlar", "Jazzi portretlar, ixcham taqrizlar" deb nomlangan qismlarida tanqidchilik masalalariga alohida to'xtalib o'tadi. Ozod Sharafiddinov mustabid tuzum davrida tanqidchilik tor yo'lga kirib qolganligidan kuyinib yozadi: "Biz munaqqidlar – olimlar emas, mustaqil ijodkorlar emas, juda yorlaqaganda, yozuvchi yaratgan asarlarning tafsirchilari edik, xolos. Yoki yubileyarda, to'ylarda, har xil anjumanlarda u yoki bu yozuvchini maqtab, ko'klarga ko'tarib, dohiy ijodkor ekaniga uning o'zini ham ishontirib, ma'ruzalar o'qiydigan maddohlar edik"¹². Darhaqiqat, adabiyot hukmron mafkura ta'sirida bo'lgan bu davrda munaqqidning yuqoridagi fikrlari to'g'riligi, tabiiyidir. Sho'ro adabiyotida munaqqidlarning professional reytingi umumjahon me'yorlari talablariga javob bermaganligining sababi ham ana jihatlar bilan bog'liq, shu bois ham bu davrda adabiy tanqid tanazzuli kuzatilgan. O'zbek adabiy tanqidchiligi 80-yillar o'rtalarida boshlangan oshkorlik va qayta qurish davrida ham mustabid tuzum ta'sirlaridan qutula olgani yo'q. Faqat mustaqillik yillaridagina o'zbek adabiy tanqidchiligi yangi yo'lga qadam tashladi. Bu davrda munaqqidlar tanazzul holatlarini yengib o'tib, maddohlikdan xalos bo'lib, dunyoga, adabiyotga ochiq ko'z bilan qaray boshladilar. Ozod Sharafiddinov bu haqda shunday yozadi: "Mustaqillik adabiyot kabi adabiy tanqidda ham eski qoliqlar va iskanjalarni uloqtirib tashlab, erkin ijod qilishga imkoniyat yaratdi. Menimcha, mustaqillikning adabiy tanqidga bergen eng katta ne'mati shundan iborat. Lekin ta'kidlab aytmoq kerakki, bu ne'mat – imkoniyat shaklida berilgan, uni voqelikka aylantirish, undan foydalanish esa to'laligicha ijodkorninng o'ziga, munaqqidlarga bog'liq. Ular mas'uliyatni to'la tushunib, butun kuchlarini safarbar etib, mustaqil vatanga munosib mustaqil va yuksak jur'atli va ta'sirchan adabiy tanqid yaratmoqlari kerak"¹³. Mustaqillik yillaridagi yangicha qarashlar, ijtimoiy hayotdaning barcha sohalarida yuz bergen sifat o'zgarishlari badiiy adabiyotga ham, adabiyotshunoslikka va adabiy tanqidda ham o'z ifodasini topdi. Ma'lumki, badiiy adabiyotning asosiy vazifasi insonni va uni o'rab olgan voqelikni badiiy tasvirlash vositasida komil insonni tarbiyalashdan iborat. Binobarin, adabiy tanqidchilikning vazifasi ham komil inson xarakterini, uning estetik didini tarbiyalashga qaratilgan bo'ladi. Adabiy jarayonda, yozuvchi faoliyatida qanday ijobiy yoki salbiy, murakkab yoxud ziddiyatli hodisa ro'y bermasin, barchasini so'z san'ati, badiiylik talablariga binoan yoritish zarur. Shundagina tanqidchi haqiqiy, to'g'ri umumlashma va xulosalar chiqara oladi va yozuvchilar bilan bir saviyada bahslasha olish bir qadar yorqin qiyofasini namoyon etadiqichiga ko'tarildi. Xususan, istiqlol arafalari. O'zbek tanqidchiligi va adabiyotshunosligi XX asrning uchinchi choragidan boshlab o'z taraqqiyotining yangi bosqichga ko'tarildi. Xususan, istiqlol arafalari va, ayniqsa,

¹² O.Sharafiddinov. Ijodni anglash baxti. T-2004. B.229

¹³ O.Sharafiddinov. Ijodni anglash baxti. T-2004. B.605

MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

mustaqillik davriga kelib, metodologiya masalasida xalqaro mezonlarni egallash yo‘liga o‘tkanini ko‘rsatdi. Tanqid va adabiyotshunoslik metodologiyasi asosida badiiy adabiyotni tadqiq etish qonuniyatlarining umumiy, mushtarak prinsiplaridagi hujayralarida har bir xalqning adabiy-madaniy hamda ijtimoiy-siyosiy ehtiyojlari bilan aloqadorlikdagi milliy xususiyatlari ham bo‘lishi mumkinligini inkor etmaydi. Adabiy tanqid va adabiyotshunoslik tahlil va tadqiqi yo‘li bilan adabiyot doirasi yoritish hamda yozuvchi hayoti va ijodini o‘rganish bilangina cheklanmay, ular vositasida hayot, jamiyat, millat tashviy-quvonchlari va inson ichki dunyosiga daxldor Vatan muammolarini, umuman, vatandoshni, zamondoshni, insoniyatni to‘qlqnantirib kelgan. Munaqqid Ozod Sharafiddinov asarlarida ayni shu masalalar talqini oldingi o‘rinda turadi. Tanqidning vazifasi asar badiiyatini o‘rganish ekani to‘g‘ri, lekin bu haqiqat tanqid uning vositasida insонning jamiyat bilan aloqadorlikdagi masalalarni ham o‘rganishi zarur va ba’zi xollarda muhim ekanini taqozo etadi. Adabiyot vositasida davr va uning ehtiyojlari bilan mustahkam aloqadorlik, tanqid vositasida xalq dardiga kamarbastalik Ozod Sharafiddinov ijodining muhim xususiyatlaridan biridir. Munaqqid adabiyotshunoslik va tanqidchilikning vazifalari, o‘ziga xos xususiyatlari xususida “Ijodni anglash baxti” asaridagi maqolalarda alohida yoritib beradi. Tanqidning muhim vazifalaridan yana biri - tanqidning har bir konkret tarixiy davrdagi ijtimoiy-estetik roli, uning izlanishlari va badiiy kashfiyotlarini anglash va baholashdir. Bunda adabiyot tarixi va nazariyasidagi xususiyatlar albatta hisobga olinadi. Shu jihatdan oqimdagи adabiy tanqid adabiyot nazariyasiga yaqinlashsa, badiiy asarni o‘rga-nish, taxlil qilish tamoyillariga ko‘ra adabiyot tarixiga yondosh keladi. Bunday yaqinlik adib va munaqqidga xos fikrlash tarzidagi farqlarni inkor etmaydi. Chunonchi, izchil ilmiy mantiq munaqqid qarashlarida ustivor bo‘lib, u fikrni kitobxonga yetkazish uchun obrazlilikka murojaat etadi. Ilmiy mantiqning qay darajada izchilligi, teranligi, histuyg‘uga boyligi munaqqid bilimi va salohiyatiga bog‘liq. Munaqqid shaxsi- u yaratgan tanqidiy asarning adabiy jarayonga ta’siri va originalligi bilan tayinlanadi. Tanqidchilik o‘z mohiyatiga ko‘ra yaratish, kashf etish xususiyatini namoyon qilib, adabiy jarayondagi barcha ijobiy va salbiy o‘zgarishlarning sabablarini ochib tashlash orqali badiiy ijod ravnaqiga, estetik ong rivojiga ta’sir ko‘rsatish yo‘lidan bormoqda. Bunda tanqidchi iste’dodi, talanti hal qiluvchi omildir. Ozod Sharafiddinov talant tarkibidagi uch jihatni alohida ko‘rsatadi: “birinchisi adabiyotdagi go‘zallikni, g‘oyaviy va badiiy boylikni his qila bilishdir. Tanqidchilik talanti tarkibiga kiruvchi yana bir element fikrlash qobiliyatidir. Tanqidchi o‘qigan narsalarini chuqr tahlil qila bilishi, asardagi voqeа va hodisalarни xarakterni hayot hodisalarini bilan hayotdagi jonli odamlar bilan taqqoslaysi bilishi va taqqoslardan jamiyat hayoti uchun zarur hamda foydali xulosalar, umumlashmalar chiqara olishi kerak. Nihoyat, tanqidchilik uchinchi elementi sifatida so‘z san’atiga nisbatan ehtirosli, otashin muhabbatni aytish mumkin”. Munaqqidda talant bilan chuqr adabiy ilm uyg‘un bo‘lishi zarurligini uqtiradi. “Ijodni anglash baxti” asaridan qator etyudlar ham o‘rin olgan adabiy etyudlarda ham munaqqidning

MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

adabiytanqidiy qarashlari aks etgan. Etyudlarda olim tahlilining chuqurligini, fikr diapazonining kengligini, adabiy hodisalarini teran va o'tkir kuzatishini, nihoyat fikrmulohazalarini jo'shqin ehtiros bilan qiziqarli bayon qilganligini ochiq-oydin ko'rsatadi. Ozod Sharafiddinov jahon adabiyoti olamini ham chuqur biladigan keng qamrovli olimdir. Uning adabiy tanqidchilik faoliyatida tanqidchilikning ilmiy-nazariy masalalariga bag'ishlangan qarashlarining evolyusiyasini kuzatish mumkin. Munaqqid tanqidchining fikrlash qobiliyati va halollik fazilatini alohida uqtiradi, masulyatsizlik, ofarinbozlik, nayzabozlik illatlarini qattiq qoralaydi. Munaqqidning adabiy-tanqidiy karashlari, sinchkov falsafiy tafakkuri, hissiy, obrazli estetik fikrlash qobiliyati teranligida namoyon bulgan. Ayniqsa, hayot va badiiy adabiyot go'zalliklari olamidagi injularni tez ilg'ab olish Ozod Sharafiddinov faoliyatining asosiy mezonini tashkil etadi. Shuning uchun uning har bir maqolasi katta zavq-shavq bilano'qiladi va har doim tanqidchining "men"i ko'zga yaqqol tashlanibturadi. Shunisi e'tiborliki, Ozod Sharafiddinov ijodida she'riyat, nasr va adabiy tanqid muammolari birdek o'z ifodasini topib kelayotganligini uning "Ijodni anglash baxti" kitobida alohida kuzatish mumkin. Ozod Sharafiddinovning adabiy-tanqidiy uslubiga xos muhim tomonlardan yana biri - aksariyat hollarda o'zi fikr yuritayotgan she'r, poema yoki nasriy asarning matnini o'quvchi ko'z o'ngida tag'in bir bor tiklash bo'lib, shu yo'sinda asarning, qolaversa, muallif ijodining mahorat sirlari haqida bahs yuritib, o'zining nuqtai nazari va g'oyaviy-estetik qarashlarini kitobxon xukmiga havola etadi. Munaqqid asarning tahlili jarayonida uning eng hayajonli nuqtalarini topa biladi, ulardan ehtirosli ma'nolarni kashf etib, mushohada yuritadi. Ozod Sharafiddinovning "Ijodni anglash baxti" asaridagi "Muqaddas burch", "Adabiy tanqid va yangi tafakkur", "Modernizm – jo'n hodisa emas", "Adabiyot andozalarga sig'maydi" kabi maqolalari va qator taqrizlari yangi davr o'zbek tanqidchiligining yo'nalish beruvchi, metodologik prinsiplarini shakllantiruvchi, tanqidechiligidan yangi bosqich boshlanganini ko'rsatuvchi namunalardir. Ozod Sharafiddinov ilmiy faoliyatida o'rganilayotgan muammoning o'zidan tashqari jihatlariga alohida e'tibor berish, ilmiy o'rganish yo'sinlari, prinsiplari, ya'ni metodologik asoslariga e'tibor kuchlidir. Xulosa qilib aytganda, Munaqqid tanqidchilik masalalari haqida fikr yuritar ekan, har bir fikrini dalillab, misollar bilan asoslab boradi. Ayniqsa, mustaqillik yillarida timmay mehnat qilgan munaqqid ijodkorlar, shoir va adiblarga qarata "o'zini qalamkash ijodkor hisoblagan har bir odam istiqlolga munosib asar yaratish sohasida qo'lidan kelgan hamma ishni qilmog'i kerak" deydi. Zero, Ozod Sharafiddinovning o'zi istiqlol yillarida o'zbek adabiyotining, tanqidchiligining yuksalishi uchun barcha imkoniyatlarini ishga solib, asosiy e'tiborini davr va kelajak uchun zarur bo'lgan g'oyalarning shakllanish jarayonlariga qaratdi. "Ijodni anglash baxti" asariga kirgan tanqidiy maqolalarida o'zbek adabiyoti tarixini yangicha idrok etish, badiiy ijodni, ijodkor shaxsini sho'ro davrining qarashlaridan farqli o'laroq, umumbashariy mezonlarda anglash imkonini beradi.

1. O. Sharafiddinov."Ijodni anglash baxti" Toshkent,2004
2. O.Sharafiddinov."Talant-xalq mulki".Toshkent,1979
3. O.Sharafiddinov. "Dovondagi o'ylar".Toshkent,2004
4. www.ziyonet.uz
5. www.google.uz

